

## SOTISH UCHUN MO'LJALLANGAN DEB TASNIFLANGAN UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI BUXGALTERIYA SCHYOTLARIDA AKS ETTIRISH

Niyatov Jaxongir Abdugappor o'g'li

SamISI mustaqil tadqiqotchisi

**Anatatsiya:** Sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan UMAlarni hisobga olishning uslubiy tartib qoidalarini ko'rib o'tilgan, turli korxonalar misolida faoliyatlar buxgalteriya balanslari yuritilganligi va ularning natijalari xulosasi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Savdo kompleksi, sotish bo'yicha xaridorlarni, ko'chmas mulk obyekti, investitsiyaviy ko'chmas mulk, adolatli qiymati, kapital qiymati, balans qiymati, likvidatsion qiymati, buxgalteriya schyotlari,

Sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan UMAlarni hisobga olishning uslubiy tartib qoidalarini ko'rib o'taylik.

1-misol. Naturel MCHJ xorijiy kompaniyasi o'zi mulk huquqi asosida taalluqli bo'lgan hamda 2023 yil 1 avgustdan 2024 yil 31 avgustga qadar operatsion ijarada bo'lgan savdo kompleksini sotish bo'yicha qaror qabul qildi. Toshkent shahrida joylashgan ko'chmas mulk obyekti bilan 6 oy ichida 2% lik haq to'lash asosida ushbu savdo kompleksini sotish bo'yicha xaridorlarni topish va barcha huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha shartnoma tuzdi. Tegishli e'lonlar biznesga oid bo'lgan nashrlarda chop ettirildi.

Savdo kompleksi sotish uchun mo'ljallangan UMA deb tasniflangan obyekt mezonlariga to'liq javob beradi. Chunki, ushbu aktivning balans qiymati asosan uni sotish hisobidan olinadigan tushum hisobidan qoplaniladi. Ushbu bitim qisqa muddatda, ya'ni katta bir ehtimol bilan 6 oy ichida amalga oshiriladi (6 oy bu maksimum muddat). Shu bois, mazkur obyekt 2024 yil 1 sentyabrdan sotish uchun tutib turiladigan aktiv sifatida tasniflanishi lozim.

Savdo kompleksi investitsiyaviy ko'chmas mulk sifatida hisobga olingan. Chunki, u bir yil muddatga operativ ijaraga berilgan.

Sotish uchun mo'ljallangan UMA deb tasniflangunga qadar mazkur obyekt 40-son BHXS "Investitsiyaviy ko'chmas mulk" standartiga muvofiq adolatli (haqqoniy) qiymati bo'yicha aks ettirilgan. Uning adolatli (haqqoniy) qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar quyida keltirilgan:

2023 yil 1 avgust – 5 450 350 000 so'm

2023 yil 31 dekabr – 5 950 800 000 so'm

2024 yil 31 avgust – 6 350 890 000 so'm

Ushbu jarayonlarni buxgalteriya schyotlarida va moliyaviy hisobotda aks ettirish talab etiladi.

1. 2024 yil 1 sentyabrdan investitsiyaviy ko'chmas mulk sotish uchun mo'ljallangan UMAlar kategoriyasiga o'tkazilishidan oldin, IKMning qiymatining oshishidan olinadigan daromadni aniqlab, uni 2024 yil 31 avgust holatida adolatli qiymatda aks ettirib olishimiz kerak. Buning uchun quyidagi buxgalteriya yozuvini beramiz.

D-t 0192 "Investitsiyaviy ko'chmas mulk: bino".... 400 090 000 so'm

K-t 9391 "IKM qiymati oshishidan daromad".....400 090 000

Asos: 2024 yil 31 avgustda IKM bo'lgan savdo kompleksi adolatli qiymati bo'yicha qayta baholangan. Ushbu sanadagi adolatli qiymati 6 350 890 000 so'm. Undan oldingi qayta baholashdagi, ya'ni 2023 yil 31 dekabrdagi adolatli qiymati 5 950 800 000 so'mni tashkil qilgan. Ushbu summalar o'rtasidagi farq investitsiyaviy mulkning kapital qiymati oshishidan olingan daromad sifatida tan olinadi. Qiymatning oshishidan olingan daromad 400 090 000 so'mni (6 350 890 000 – 5 950 800 000) tashkil etadi.

2. Savdo kompleksi sotish uchun mo'ljallangan UMA deb tasniflangandan so'ng, IKM tarkibidan sotish uchun mo'ljallangan UMA tarkibiga o'tkaziladi.

D-t 1210 "Sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan yer va bino".....6 350 890 000 so'm

K-t 0192 “Investitsiyaviy ko‘chmas mulk” .....6 350 890 000

Asos: Savdo kompleksi investitsiyaviy ko‘chmas mulk obykti sifatida hisobga olinadi. 2024 yil 1 sentyabrdan uni sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan UMAlar tarkibiga o‘tkazishga qaror qilingan. O‘tkazish sanasida uning adolatli (haqqoniy) qiymati 6 350 890 000 so‘mni tashkil etgan.

3. 5-son BHXS talablariga muvofiq sotish uchun mo‘ljallangan UMA deb tasniflangan savdo kompleksining sof sotish mumkin bo‘lgan adolatli qiymatida aks ettiramiz.

Sotish xarajatlari=(6 350 890 000 x 2%)/(100%) =127 017 800 so‘m

Sof sotish mumkin bo‘lgan adolatli qiymati=6 350 890 000-127 017 800 =6 223 872 200 so‘m

D-t Aktivlarning qadrsizlanishidan zarar.....127 017 800

K-t 0330 “Sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan UMA bo‘yicha jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zarar”.....127 017 800

Asos: Aktivning balans qiymati uning qoplanadigan qiymatidan katta bo‘lsa qadrsizlanish zarar yuzga keladi. Savdo kompleksining balans qiymati 6 350 890 000 so‘m. Uning sof sotish mumkin bo‘lgan adolatli qiymati 6 223 872 200 so‘m. O‘rtadagi farq qadrsizlanishdan zarar 127 017 800 so‘m (6 350 890 000 – 6 223 872 200)ni tashkil etgan.

Sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettirish

Ko‘rsatkichlar 2023 yil 31 dekabr 2024 yil 31 dekabr

A. 2024 yil 31 dekabr holati bilan yakunlanadigan yil uchun moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot (ming so‘m)

Investitsiyaviy ko‘chmas mulk 5 950 800 0

Sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktivlar 0

6 223 872

B. Foyda yoki zararlar va boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobot

Ko'rsatkichlar      2023 yil      2024 yil

Investitsiyaviy ko'chmas mulkning kapital qiymatining oshishidan olingan daromad      500 450      400 090

Sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktivlarning qadrsizlanishidan zarar      127 018

2-misol. 2018 yil 1 yanvar oyida "Toshkent don mahsulotlari" AJlari elash stanokni 250 400 000 so'mga sotib oldi. Uning xizmat qilish muddati 10 qilib belgilangan. Likvidatsion qiymati ko'zda tutilmagan. 2021 yil 30 oktyabrda AJ uni sotishga qaror qildi va uni sotish uchun xaridorlarni faol axtarishga kirishdi. Ushbu stanoklarni topish qiyin bo'lganligi uchun uni sotishda muammo bo'lmasligi aniq. 2021 yil 30 oktyabrda uning adolatli (haqqoniy) qiymati 135 500 000 so'mni tashkil etadi. Shuningdek, stanokni sotishga tayyorlash xarajatlari 1 550 000 so'mni tashkil etishi kuzatilmoqda.

Talab etiladi: Xalqaro standartlarga muvofiq stanok sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan UMA sifatida tan olinadimi? Buxgalteriya schyotlarida qanday aks ettiriladi? qadrsizlanishdan zarar mavjudmi? Moliyaviy hisobotda qanday aks ettiriladi?

"Toshkent don mahsulotlari" AJ 2021 yil 30 oktyabrda ushbu stanokni sotish to'g'risida qaror qabul qildi. Ushbu asosiy vositani sotish uchun xaridor topish uchun faol harakatlarni boshladi. Demak, 5-son BHXS'lari talablariga muvofiq korxonada 2021 yil 30 oktyabrda stanokni "Sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktiv" sifatida tan olishi shart.

U holda stanok asosiy vositalar tarkibidan joriy (aylanma) aktivlar tarkibiga o'tkazilishi kerak. Amaldagi schyotlar rejasida sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan uzoq muddatli aktivlar hisobi uchun alohida schyotlar ko'zda tutilmagan.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. С. Ташназаров Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1 [Матн]: дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023 - 580 бет
2. Toshmatov N., Ismanov I., Buzurkhanov S. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. T.:–“Sano-standart” nashriyoti, 2019. 560 bet
3. Hasanov B.A., Hashimov A.A., Muhametov A.B., Abduvohidov A.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik.- T.: ”Iqtisodiyot dunyosi” , 2021. 992 bet
4. Egamberdiyeva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.
5. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
6. Farxodovich, Boronov Bobur, and Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li. "MECHANISMS FOR USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES IN THE ELECTRONIC GOVERNMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THEIR EFFECTIVENESS." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 285-292.
7. Боронов, Бобур, and Заррух Мухаммадиев. "ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЪЕМА УЧЕТА КАПИТАЛЬНЫХ ВЛОЖЕНИЙ В ХОЗЯЙСТВУЮЩИЕ СУБЪЕКТЫ." *Передовая экономика и педагогические технологии* 2.2 (2025): 444-50.